

AMUDARYO O'NG VA SO'L SOHILI HUDUDLARIDA MADANIY-XO'JALIK MARKAZLAR MASALALARI

Qadirova Gulhayo

*Urganch davlat universiteti, Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar fakulteti,
Arxeologiya yo'nalishi magistranti*

Kalit so'zlar: Amudaryo, Xorazm, o'ng sohili, so'l sohili, madaniy markazlar, xo'jalik hayoti, arxeologiya.

Kirish. Markaziy Osiyoning qadimiy hududlaridan biri bo'lgan Xorazm vohasi, o'zining tabiiy-geografik sharoitlari, sug'orishga asoslangan dehqonchilik analari, siyosiy-harbiy tuzilmalar va urbanizatsiya jarayonlari bilan ajralib turgan noyob madaniy makon hisoblanadi. Miloddan avvalgi ming yillikdan boshlab bu hududda shakllangan madaniy-xo'jalik markazlari nafaqat vohaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida, balki butun Markaziy Osiyo sivilizatsiyasining taraqqiyotida muhim o'rin tutgan.

Tahlil va natijalar. Arxeologik va yozma manbalar asosida aniqlangan Odoytepa, Kuzaliqir, Qushqal'a, Butentov, Hazarasp, Tuproqqal'a, Toshhirmon singari markazlarmustaqil boshqaruv tizimiga ega bo'lgan yirik shaharlar bo'lib, ular atrofiga ko'plab mikrovohalarni birlashtirib, suv resurslariga asoslangan xo'jalik tizimini shakllantirgan. Har bir markaz o'ziga xos geografik joylashuvga, sug'orishinshootlariga, mudofaa devorlariga va ishlab chiqarish markazlariga ega bo'lgan. Mazkur tadqiqot ana shu madaniy-xo'jalik markazlarning shakllanishi, funksional vazifalari, va tarixiy ahamiyatini yoritishga qaratilgan bo'lib, Xorazmvohasida qadimgi urbanizatsiya va agrar sivilizatsiya qanday tarkib topganini chuqur tahlil qilish imkonini beradi.

1. Odoytepa – Xorazm vohasi janubiy qismi, Amudaryo o'rta qismi so'l sohili balandligi atrofi madaniy-xo'jalik markazi va bosh shahri.

2. Ko'zaliqir. Dovdon irmog'i o'rta qisqichliq tomon ajralib chiqqan shoxobchadan Ko'zaliqir balandligi tomon Charmanyob magistral sug'orish inshooti chiqarilishi munosabati bilan mazkur balandlik qiriga mazkur atamada yodgorlik qadimgi ko'tarishi munosabati bilan navbatdagi madaniy-xo'jalik markaz shakllandi. Yodgorlik mazkur madaniy-xo'jalik markazi va uning atrofini qamrab olib, bosh shaharga aylandi.

Qangqaqal'a–1. Dovdonning Kanghadaryo shoxobchasi havzasi atroflarini madaniy-xo'jalik markazi va uning bosh shahri bo'lgan.

Butentov–1. Butentov tepaligi atrofi bosh shahri. Uning tarkibini Butentov–2, Butentov–3 mikrovohalari tashkil etgan.

Qushqal'a 1. Amudaryo o'rta qismini qamrab olgan Qushqal'amadaniy-xo'jalik markazi bosh shahri. Uning tarkibida mikrovoha markazi Odoytepa bo'lgan.

Xulosa va takliflar. Amudaryoning o'ng va so'l sohili hududlari o'tmishda nafaqat tabiiy-geografik, balki madaniy-iqtisodiy jihatdan ham bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. Bu markazlar o'zaro almashinuv, sug'orish tizimi va savdo yo'llari orqali mintaqa sivilizatsiyasining rivojiga katta hissa qo'shgan. Ularni o'rganish bugungi kunda Markaziy Osiyo tarixining yangi jihatlarini ochib berishga xizmat qiladi. Shuningdek, Amudaryoning o'ng va so'l sohili o'rtasidagi madaniy aloqalar vaxo'jalik almanxlari bu hududlarni nafaqat alohida, balki o'zaro bog'langantarixiy-iqtisodiy makon sifatida o'rganish zarurligini ko'rsatadi. Bu esa, mazkur mintaqalarning umumiy rivojlanishida ularning bir-birini to'ldiruvchi vaboyituvchi o'rin tutganini isbotlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- [1]. Гуломов Я. Ғ. Хоразмнинг суғорилиш тарихи. – Т., ФАН, 1959.
- [2] Tolstov S.P. Qadimgi Xorazm madaniyatini izlab.- Т., 1964, 239-242 betlar.
- [3]Итина М.А. Древности южного Хорезма.- М., Наука, 1991.